

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “HALOLLIK” KONSEPTIDA OID ONTOLOGIK METAFORALARI

**Xo‘jayeva Umida Maxmudovna,**  
Navoiy davlat universiteti, Tillar fakulteti  
“Ingliz tili amaliy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi  
[umidaxujayeva@gmail.com](mailto:umidaxujayeva@gmail.com)  
[ORCID 0009-0006-7348-3906](https://orcid.org/0009-0006-7348-3906)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutqimizda mavjud bo‘lgan “halollik” umumiy ma’noli ontologik metaforik birliklarning leksik–semantik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan, ular misollar bilan dalillangan. Ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan turli xil diskurs jarayonlarida qo‘llaniladigan “halollik” konseptiga oid ontologik metaforik birliklar va ularning pragmatik strukturasi hamda ma’nolari turli xil adabiy manbalar va tilshunoslarning fikrlarini tahlil qilish orqali tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ontologik, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, leksik kategoriyalar, lingvokulturologiya.

**Abstract.** This article examines the lexical-semantic features of ontological metaphorical units of general meaning that represent the concept of “honesty” in discourse, supported by illustrative examples. Within the scope of the study, a comprehensive analysis is conducted of ontological metaphorical units associated with the concept of “honesty” as they are used in various communicative contexts in English and Uzbek. Special attention is given to their pragmatic structure and semantic interpretations, which are explored through the analysis of literary sources and the scholarly perspectives of contemporary linguists. This approach makes it possible to identify the role of this concept in language and culture, as well as its discursive functions.

**Keywords:** ontological metaphor, pragmatics, cognitive linguistics, lexical-semantic categories, linguoculturology.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются лексико-семантические особенности онтологических метафорических единиц общего значения, репрезентирующих концепт «честность» в речи, с их иллюстрацией на конкретных примерах. В рамках исследования проводится комплексный анализ онтологических метафорических единиц, связанных с концептом «честность», функционирующих в различных коммуникативных ситуациях в английском и узбекском языках, а также их прагматической структуры и семантической интерпретации на основе литературных источников и научных взглядов современных лингвистов. Данный подход позволяет выявить роль данного концепта в языке и культуре, а также его дискурсивные функции.

**Ключевые слова:** онтологическая метафора, прагматика, когнитивная лингвистика, лексико-семантические категории, лингвокультурология.

**Kirish.** Metaforalar kognitiv tilshunoslikda inson ongining til bilan qanchalar bog‘liq ekanligini anglashga xizmat qiluvchi hamda inson tafakkurining eng asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Metaforalar shunchaki badiiy adabiyotlarda fikrni konkretlashtirish uchun ishlatiladigan vosita emas, uning bundanda muhimroq vazifasi abstrakt tushunchalarni hamda so‘zlovchi tinglovchiga anglash hamda tushunishi qiyin bo‘lgan mavhum bo‘lgan vaziyatlarni aniqroq va yanada osonroq tushunturuvchi kognitiv modellikdir. Bundan tashqari, yuqorida tahlil etilgan bazi bir ontologik metaforik birliklar makoniy tushunchalarni axloqiy va tafakkur kabi abstrakt sohalarga ko‘chirgan holda izohlash qobiliyatiga egadir. Ayniqsa har ikki o‘zbek va ingliz tilida mavjud bo‘lgan

ma'naviyat leksik kategoriyasiga kiruvchi axloqiy qiymatga ega bo'lgan tushunchalar asosan metaforik strukturalar tomonidan ifodalanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yuqorida nomlari bir necha bora keltirib o'tilgan kognitiv metaforalar nazariyalari asoschilari hisoblangan George Lakoff va Mark Johnsonlar metaforalarni jamiyatning milliy tajribasi va insonlar tafakkurining konseptual strukturasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini isbotlashgan. Ularning ta'kidlashicha: "Mavhum bo'lgan tushunchalarni obyekt, mavjudlik, hamda mavjud bo'lgan inson ko'z oldiga keltirishi oson bo'lgan substansiyalar sifatida tasavvur qilish imkonini beruvchi metafora turlari bu ontologik metaforalardir". Yana bir tilshunos Zoltan Kovacses ontologik metaforalarni shaxs va jamiyat tafakkurining muhim kategoriyalari sifatida izohlagan. Uning fikriga ko'ra, "ontologik metaforalar inson anglashi qiyin bo'lgan abstrakt tushunchalarni bir butun chegaralarga ega modda yoki substansiya sifatida tasavvur etish imkoniyatini beradi. Shundan ma'lumki, ontologik metaforalar orqali shaxslar murakkab axloqiy hamda ijtimoiy ongga singib ketgan tushunchalarni konkret predmetlar bilan ifodalash yordamida yanada aniqroq va yaxshiroq anglay oladi. Ingliz tilida "honesty" hamda uning o'zbek tilidagi ekvivalenti "halollik" konsepti ham aynan mana shunday metaforik birliklar orqali osonroq ifoda etiladi. Har ikkala tilda ham bu tushuncha asosan obyekt, fazilat, modda hamda ichki xarakter sifatida konseptuallashtiriladi. Demak, har ikkala tilda ham ontologik metaforalar faol ishlatiladi.

**Muhokama va natija.** Ingliz tilida honesty tushunchasi ko'pincha shaffoflik, tozalik, to'g'rilik va qimmatlilik xususiyatiga ega bo'lgan narsalar bilan ifodalanadi. Masalan, halol shaxslar *light*, ya'ni yorug'likka qiyoslanadi: *The light of his guides his actions*. Ushbu jumlada berilgan *light* so'zi shaxsning oqligini yoki yorug'lik tarqata olishdek jismoniy holatini emas, uning ichki yorug'ligini yani integrity vijdonlilikini tasvirlab kelmoqda. Semantik jihatdan ushbu *light* tushunchasi qorong'ulikning ziddi bo'lgan nur yordamida hamma joyni yorishtirib turadigan yorug'likni ifodalasa, berilgan jumlada u metaforik jihatdan insonni xira bo'lmagan, uning ichki dunyosini yoritib turadigan halollik tushunchasini ifodalamoqda.

"Pure heart" yana bir ontologik metaforik birligi honesty leksimasiga sinonim tarzda ko'pgina yozma va og'izaki kontekstlarda uchraydi. Ushbu birlik tarkibida *pure* leksimasi dennotativ ma'noda hech qanday qo'shimcha komponentlar qo'shilmagan, aralashmalarsiz, sof kabi semalarni ifodalasa, *heart* tushunchasi inson ichki organzmining nomidir. *Heart* so'zi yuqorida berilgan birikma tarkibida ichki his-tuyg'u, niyat, samimiyat, axloqiy markazni anglatuvchi konseptual birlikka aylanmoqda. *Pure heart* ontologik metaforasi "g'arazli niyatlardan holi", "samimiyat bilan to'lgan", "pok niyatli ichki dunyo" kabi semantikani yuzaga keltirmoqda. Leksik-semantik jihatdan qaraydigan bo'lsak, ushbu metaforik birlik halollikni tashqi xatti-harakat sifatida emas, balki, ichki substansional fazilat sifatida izohlaydi. *Pure heart* metaforik birligi yordamida halollik konsepti quyidagi ma'no komponentlar bilan bog'lanadi: samimiylik, g'arazsiz

munosabat, ichki axloqiy poklik, niyatning sofligi, ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'lishlilik. A. Goatly ontologik metaforik birliklarni mavhum bo'lgan tushunchalarni real obyektlarga bog'lab tushuntirishdir deb izohlagan. Yuroqida berilgan birlikda ham honesty tushunchasi insonning ichki tana a'zosini pure sof so'zi bilan sifatlash orqali anglashilgan.

*White soul* birikmasi poetik va individual qo'llanish xususiyatiga ega ontologik birlik hisoblanadi. Ushbu birlik semantik jihatdan muhim ahamiyatga egadir, ingliz tilida white (oq) rangi manaviy soflik, aybsizlik ma'no komponentlarini anglatadi, soul insonning ichki ma'naviy mohiyatining mavjudligini bildiradi. Ushbu birikma ingliz badiiy adabiyotida asrlar davomida faol ishlatilib kelinmoqda. Har qanday metaforik birlik ma'lum bir xalqning yillar davomida orttirilgan tajribasining mahsulidir. Ingliz xalq og'izaki hamda nasriy manbalarda ko'p uchaydigan ushbu birlik shaxsning ma'naviy pokligini, axloqiy oqillik hamda ichki dunyosining sof ekanligini izohlashda uchun ishlatiladi. White komponenti ushbu birlikda izohlovchi marker hisoblanadi. Clear conscience birikmasi ham ontologik metaforik birlik hisoblanadi. Ushbu birlikda clear tushunchasi tiniq, shaffof literal va aybsiz, pok vijdonli kabi metaforik ma'nolarga egadir. Conscience leksimasining esa literal ma'nosi vijdon, metaforik jihatdan ichki axloqiy fazilat ma'nosini anglatadi. Ong, axloq hamda hissiyotni anglatuvchi konseptlar asosan biror bir obyektlar yoki metarialistik moddalar orqali konseptuallashtiriladi. Clear conscience metaforik birikmasi ham honesty tushunchasining ma'nosini yanada kuchaytirgan holda, tiniq hamda yomon amallar bilan bulg'anmagan vijdonni tasvirlaydi.

*"Straight man"* metaforik birikmasi ham halollik konsepti ma'nosini ifodalovchi ontologik metaforadir. *Straight* so'zi *upright* leksimasiga sinonim bo'lib, dennotativ ma'noda geometrik atama bo'lib, fazoviy to'g'rilik, tiklik, og'maslik semalarini bildiradi. *Straight man* metaforik birikmasida esa *straight* leksimasi konnotativ ma'noda ishlatilgan bo'lib, axloqiy sobitlik, printspiallik, bevositalik, to'g'ri yo'ldan og'ishmaslik kabi komponentlarni bildiradi. Ingliz tilshunosligida halollik tushunchasi fazoviy orientatsiya vositalari orqali ham ifodalanadi. Egri yolg'onchilik, to'g'ri esa halollik hamda yaxshilik ifodasidir. *Open heart, transparent behavior, crystal-clear intentions* kabi metaforik birliklar qo'llash yordamida honesty abstrakt tushunchasini ma'noviy jihatdan kuchaytirish hamda bo'rttirgan holda ifodalash imkoniyati mavjud. Yuqorida sanab o'tilgan metaforik birliklar yordamida halollik tushunchasining shaffoflik hamda ochiqlik modeli yaratilgan, Metaforik birliklar tarkibiga kiruvchi *open, transparent, crystal-clear* so'zlari o'zaro sinonimik qatorni vujudga keltiradi va bu tushunchalar yurak, xulq-atvor, niyat kabi tushunchalar bilan birikkan holda shaxslarga xos bo'lgan halollik, to'g'rilik, samimiylilik, niyatning xolis ekanligi, yashirin ichki yomon istaklar yo'q ekanligi kabi fazilatlarni ifodalab kelmoqda. *Open heart* birikmasi badiiy adabiyotda ham keng qo'llaniladi. Masalan, Charles Dickensning *"David Copperfield"* asarida quyidagi jumla keltirilgan: *"He spoke with an open heart, and there was no guile in him"* (U shunchalik vijdonan gapirdiki, unga nisbatan hech qanday shubha qolmadi). Dickens *open heart*

metaforik birikmasidan foydalanish orqali obrazning qay darajada ichki ochiqlik va samimiylik kabi fazilatlariga ega ekanligini tasvirlagan. Shunchaki honesty yoki uning ma'nodosh semalarini emas, open heart metaforasini keltirish orqali o'quvchida tasvirlanayotgan obrazning halol ekanligiga to'laqonli ishontira olgan, Jane Austen esa "Emma" asarida clear intentions birikmasidan mohirona foydalangan: *"Her intentions were so crystal-clear that no one could mistake them"* (Uning niyatlari shunchalik xolis ediku, hech kim ularni xato, g'aliz deb aytolmadi). Yozuvchi asar bosh qahramonining yomon niyatlardan uzoq ekanligini, hech kim uning to'g'riligiga shubha qilolmasligini muhokama etilayotgan birikma yordamida ifodalagan.

Ingliz tilida keng faol, turli xil janrlarda aktiv qo'llanadigan ontologik metaforalari kabi o'zbek tilida ham halollikni real obyektlar yordamida ifodalash imkoniyati mavjuddir. Avvalambor, o'zbek tilida halollik tushunchasi yanada boy madaniy-assotsiativ asosga ega bo'lib, asosan yozma va og'izaki manbalarda ushbu konsepti oq, to'g'ri, toza yorug', pok kabi komponentlar bilan tasvirlanadi. Dastavval, o'zbek tilida mavjud bo'lgan va judayam keng ishlatiladigan nominativ vosita oqko'ngil metaforasi analiz qilinishi zarur. Oqko'ngil metaforasi rang tasviri bilan birikkan holda g'arazsizlik, halollik, ezgulik, samimiyat kabi baholovchi semalarni tashkil etadi. Ushbu birlik semantik jihatdan halollikning turli xil qatlamlarini tashkil etadi. Halollikning ishonchlilik, ichki soflik, insoniy samimiyat, g'arazsiz munosabatlar ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Oq rang o'zbek tilshunosligida hamda madaniyatida asosan shoffoflik, soflik, poklik ramzi sifatida talqin etiladi. Yu fikriga ko'ra: "Axloqqa va qadriyatga oid bo'lgan metaforik birliklar madaniy talqinlarda o'z ifodasini topadi, lekin ularning ko'pchiligi umumiy hamda universal xalq tajribasida namoyon bo'ladi". Shunday ekan, oq rang tasviri bilan bog'liq bo'lgan metaforik birliklar va boshqa fraziologik birikmalar ham mavjud. Misol uchun, yana bir ontologik metaforik birlik oq yuzli birikmasiga kelsak, ushbu birlik shaxsning yuz qismini qay darajada oqligini yani jismoniy holatini emas, balki, insonning ichki dunyosining kirlanmaganini, ichki soflik va samimiyat mavjud ekanligini ifodalash uchun ishlatiladi. Ham xalq og'izaki ijodida ham kundalik nutq jarayonlarida ushbu birikma faol ishlatiladi.

Yana bir soflik, g'arazsizlik, yod bo'lgan g'oyalardan xolilikni bildiruvchi pok konsepti qalb va niyat kabi tushunchalar bilan birikkan holda halollik semasini anglata oladi. Pok qalb va pok niyat metaforik birikmalari o'zbek tilshunosligi hamda adabiyotida keng qo'llaniladi. Ma'naviy hamda axloqiy soflik semasini anglatadigan pok so'zi ushbu ikki insonning ichki manaviy markazlarini bildiradigan qalb va niyat so'zlari bilan birikkan holda halollik konseptining ichki (intrinsik) asosini tashkil etadi. Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida ushbu birikmadan foydalangan: *"Ko'ngli pok kishining so'zi ham pok bo'lur"*. Ezgulik, xiyonatdan uzoqlik, ma'naviy soflik, samimiyat kabi semalarni anglatadigan ushbu birlik tashqi xatti-harakatni emas, ichki niyat va qalb sifatiga bog'liqdir. Pok so'zining literal ma'nosi toza va kirlanmagan bo'lsa, metaforik

ma'nosi esa axloqiy soflikni ifodalaydi. Qalb va niyat so'zining liral ma'nosi esa yurak ichki dunyo, maqsadni ifodalasa, metaforik ma'nosi esa ma'naviy markazdir. Ingliz tilida mavjud biz yuqorida tahlil etgan clear conscience birikmasiga mutloq semantik jihatdan ekvivalent bo'lgan toza vijdon metaforik birikmasi ham ontologikdir. Bu yerda toza komponenti o'zining denotativ jismoniy tozalik, kir va dog' emaslik ma'nosida emas, ko'chma axloqiy jihatdan poklik va aybsizlik semalarini bildiradi. Ushbu birikma halollik leksimasiga sinonim tarzda qo'llana oladi va halollikning natijasida inson qalbida sodir bo'ladigan yengillik, ruhiy soflik, ichki aybning yo'qligi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu birikma tarkibidagi vijdon konspekti kirlanishi yoki poklanish qobiliyatiga ega bo'lgan substansiya sifatida tasvirlangan. Ushbu birlik ishlatilgan o'zbek xalq maqoli: "Vijdoni toza odamning ko'ngli ham tinch bo'lur" ingliz tilida mavjud: "A clear conscience is a soft pillow" maqoliga ekvivalentdir. Ikkala maqol tarkibidagi metaforik birliklar shaxsning eng oliy fazilatlaridan biri bo'lgan halollik, ichki ruhan, axloqiy hamda ma'naviy jihatdan poklikni anglatmoqda. Shundan anglashiladiki, millatlar orasida til birliklar hamda ularning vazifalarida farqlar bo'lishi mumkin, ammo, axloq va qadriyatga oid bo'lgan tushunchalarning real hamda farqli xususiyatlari kam bo'lgan shaxsiy fazilatlarni tarannum etadigan ekvivalentlari mavjudligi ayni haqiqatdir. Ingliz tilida honesty o'zbek tilida halollikga oid bo'lgan atov birliklarini tahlil etarkanmiz bunga yana bir bor amin bo'lish mumkin. . Shaxslar mavhum bo'lgan ichki holatlarini ta'sir hamda to'ldira olish xususiyatiga ega bo'lgan obyektlar sifatida konseptuallashtira oladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" ramonida uchraydigan halollikni anglatuvchi juda muhim bo'lgan ontologik metaforik birlik bo'lgan toza qo'l birikmasi tarkibidagi qo'l insonning amaliy faoliyatida, ish yuritishda hamda ijtimoiy harakatlarini bildiradi. Yana bir bora toza leksimasi jismoniy poklikni emas ishdagi halollik, amaliy xolislik, noqonuniylikning yo'qligi kabi semalarni bildiradi. Jadidchilik nomoyondasi bu birlikni "*U ishni to'g'ri qo'l bilan qiladigan odam edi*" tarzda foydalib, obrazning shaxsiy to'g'riligini, kasbiy hamda ma'suliyatlarini suistemol qilmasligini tasvirlagan.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu maqolada halollikning ontologik metaforik birliklar yordamida abstrakt tushuncha emas, balki, mavjudlik, substansiya yoki biror bir modda sifatida konseptuallashtirilishi o'rganilgan. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, ontologik metaforalar inson ongida anglanishi qiyin bo'lgan mavhum tushunchalarni, konkret hamda inson tasavvur qila olishi qiyin bo'lmagan jismlar orqali tushunishga xizmat qiladi. Insonlar axloq hamda qadriyatlarga oid bo'lgan tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri anglab olishga qiynaladi, shunday ekan, shu kabi tushunchalar fazoviy yoki makonga oid bo'lgan chiziqlar orqali ham ifodalana oladi. Masalan, halollik tushunchasiga oid ontologik metaforik birliklarni har ikkala madaniyatda ham to'g'ri leksimasi yordamida yasalishini olish mumkin. Darhaqiqat, har ikkala o'zbek va ingliz tillarida ham halollik/honesty tushunchasi fazoviy tuzilmalar: to'g'ri, upright, straightforward kabilar yordamida modellashtiriladi hamda bu jarayon inson tafakkurining

universal xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Yorug'lik va unga ma'nodosh bo'lgan tushunchalar yordamida ham halollik va shu kabi axloqiy tushunchalarning kognitiv ahamiyati ochib beriladi. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumolardan kelib chiqqan holda, halollik tushunchasini anglatuvchi ontologik metaforik birliklar nafaqat lingvistik balki, kognitiv hamda madaniy asosga ham egadir. Bunday metaforik birliklarning tadqiq qilish esa halollikni anglashda metaforik birliklarning roli va uni turli tillarda o'xshash lekin madaniy jihatdan farqli bo'lgan jihatlarini anglash uchun xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The way we think*. Basic Books
2. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
3. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Gibbs, R. W. (2006). *Embodiment and cognitive science*. Cambridge University Press.
6. Goatly, A. (1997). *The Language of Metaphors*. London: Routledge.
7. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Toshkent: Fan.
8. Yu, N. (2008). Metaphor from body and culture. In R. W. Gibbs (Ed.), *The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought*. Cambridge University Press.